



POLAND



POLAND

ABU RAYHON BERUNIY IZDOSHLARIMIZ

Saydjonova Dildora Madalxon qizi¹

¹Guliston davlat Universiteti, Ishlab chiqarish fakulteti o'qtuvchisi

Abdashimova Xumora Abrorxo'ja qizi²

²Guliston davlat universiteti, Ishlab Chiqarish
fakulteti 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7462611>

Annotatsiya: Abu Rayhon Beruniy hayoti va ijodi, Abu Rayhon Beruniy buyuk muttufakir, Beruniyning asarlari, Abu Rayhon beruniyning qilgan ishlari, Biz Beruniy izdoshlarimiz.

Kalit so'zlar: astranomiya, geodeziya, geologiya, mineralogiya, „Osor al-boqiya an alqurun al-xoliya“, geodeziya, netralogiya.

Annotation: Abu Rayhan Beruni's life and work, the work of Abu Rahan Beruni, the works of Abu Rahan Beruni, we are followers of Beruni.

Key words: Austromia, geodesy, geology, mineralogy, „Osar al-Boria, Alton al-kidiya“, geodesy, netrology.

O'rta asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Muhammad in al – Beruniy 973-yil Xorazimning Kat shahrida tavvalud topgan. Abu Rayhon Beruniy o'z zamonasining qatori fanlari : astranomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, tarix, kabi qator fanlarni chuqur o'rgangan. U yoshligidan ilm-fanga qiziqishi ortib brogan. U dastlab Abu Nasir Masur ibn Iroq qo'lida ta'lim olgan. Ibn Iroq astranomiya, geyometirya, matematikaga, oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bag'ishlaydi. Abu Rayhon Beruniy o'z ona tilidan tashqari yana bir qancha tillarni chuqur o'rgandi. Arab, so'g'diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini, keyinchalik Hindistonda Sanskrit tilini o'rgandi. O'z ilmiy asarlarining birida yozishicha, u Xorazimda yashagan davirda, 999-yillardan boshlab Kot shahrida muhim astranomik kuztishlar o'tkaza boshlagan. Bunday kuzatishlar ishlarini olib borish uchun u astranomik asboblarni ixtiro qilgan. Shundan so'ng Beruniy Kaspiy dengizning janubiy-sharqiy sohilidagi Jurjon shahrida bir qancha vaqt muhojirlikda yashadi. So'ngra u qadimgi Ray shahriga boradi, 998-yildan keyin yana Jurjonga keldi va bu yerda o'zining ikkinchi ustozini tabib, astanom, faylasuf, Abu Sahl Iso al-Masihiy bilan tanishib, undan ta'lim oladi. Beruniyning dastlab yozgan asarlari muhojirlikda yurgan paytlariga to'g'ri keladi. Beruniy „Osor al- boqiya an alqurun al- xoliya “(Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar) asarlarini Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va 1000-yilda tamomlagan. „Osor al-boqiya“ Beruniyga juda kata shuhrat keltirdi. Bu asar uni fanning hamda sohasiga qiziquvchi buyuk olim ekanini ko'rsatdi. Bundan tashqari Beruniy



POLAND



POLAND

Jurjonda astronomiy, netrologiya, tarixiga oid 10dan ortiq asar yozdi. Beruniy Xorazimning yangi hukmdori Abu Abbos Ma'mun II ibn Ma'muntomonidan mamlakatning yangi poytaxti Urganchga chaqirtirildi. Xorazimshoh tomonidan Abu Rayhon Beruniy juda katta izzat-ikrom bilan qabul qilindi. Shundan so'ng Urganchda Ma'munning rahnamoligida vujudga kelgan ilmiy markazda faoliyat ko'rsatishni boshladi. Abu Rayhon Beruniy shoh Ma'mun II ning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakatning siyosiy ishlarida ham faol qatnashadi. Xorazimning Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olinishi Beruniy hayotini xavf ostiga qo'yadi. U Xorazmshoh saroyidagi barcha olimlar bilan birga G'azna shahriga asirv qilib olib ketiladi. Beruniyning 1017-1048-yillarda G'aznada kechirgan hayoti bir tomondan og'ir kechgan bo'sa, ikkinchi tomondan uning ilmiy faoliyati uchun eng mahsuldor davri bo'di. „Xorazimning mashhur kishilari“ asari ham ayni shu davirda yaratilgan. Uning muhim astronomic-geografik asari (Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarini aniqlash „ „Geodeziya“)1025-yillarda yozib tugatigan.

Beruniyning „ Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushinchalar“ asari ham 1029-yillarda G'aznada yozilgan. Asarning forsha, arabchga nusxalari bizgacha yetib kelgan. Unda o'sha zamon astronomiyasi bilan bog'liq bo'lgan bir qancha fanlar haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Beruniyning „Hindiston“ nomli mashhur yirik asari ,1030-yilda yozilgan bo'lib , bu shoh asar G'arb va Sharq olimlari, shu jumladan hozirgi zamonaviy hid olimlari tomonidan yuksak baholangan. Akademik V.R.Rozen „Sharq va G'arbnining qadimgi va o'rta asrdagi butun ilmiy adabiyoti orasida bunga teng keladigan asar yo'q deb baho bergan edilar. Muhhamad G'aznaviyning Hindistonga qilgan yurishlaridan birida shohga hamrox bo'gan Beruniy , u yerda Sanskrit tilini puxta o'rganishi Hind madaniyati hamda o'rganishga muvofiq bo'lganlar. Bundan tashqari Beruniyning ilmiy merosi 150 ta asarni o'z ichiga olgan bo'lib , ular matematika, astronomiya, jo'g'rafiya, mineralogiya, tarix, etnografiya, filologiya, va falsafaga oid. Tabiat hodisalarini tekshiruvchi olim o'rnida u raqamlar tushunchasi kengayishi, kubik tenglamalar nazariyasi, sferik trigonometiriyaga o'z hissasini qo'shgan , tirgonometrik jadvalni tuzgan. Arab, fors, yunon, suriy va Sanskrit tillarini bilgan va bir tildan boshqasiga tarjima qilishning tabiiy-ilmiy teminalogiyalari qoidalarini ishlab chiqqan. Abu Rayhon Beruniy xotiralari : 2009-yil iyun oyida Eron hukumati tomonidan Venadagi BMT tashkilotining bo'limiga hozirda Vena halqaro markazi Memorial maydonidan joy olgan. Fors olimlari paviyonini tortiq etadi. Fors pavilyoni olimlari o'z ichiga 4-mashhur olimlarni olgan: Avitsenna, Beruniy, Zokiriy Roziy, (Reyz hamda Umar Hayyom). Al Beruniyning ona



POLAND



POLAND

shahrida 1957-yil uning sharafiga Beruniy nomini qo'yishgan. 1973- yil akademik I.M.Mo'minov tomonidan O'zbekistonda Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1000-yilligi munosabati bilan o'tkazilgan. Toshketdagi Sharqshunoslik ilmiy-tekshirish Insituti Abu Rayhon Beruniy nomi qo'yilgan. Toshkentda Beruniy nomidagi Metro stansiyalari, Toshkeent hamda Xorazimdagi Beruniy haykallari, Toshkent texnika Universitetiga ham Beruniy nomi berilgan. Abu Rayhon Beruniy oy vulqoni hamda asteroid Beruniy sharfiga nomlangan. Taniqli olim S.P.Tolistop o'zining „ Qadimiy Xorazim sivilizatsiya izidan“ nomli monografiyasini Xorazimlik Abu Rayhon al-Beruniyga bag'ishlagan.

Abu Rayhon Beruniy asarlari: Hindiston, Yodgorliklarni to'lash uchun ma'lumotlarni jamlash(Mineralogiya), Geodeziya (Turar joylar o'rasidagi masofani aniqlash uchun joylarning jegaralarini aniqlash), Meditsinada farmokognoziya, Hyyom va at-Tusiylarning kataloglar ilovasi bilan Al Beruniyning yuldzilar katalogi tarixiy-astronomik tadqiqotlar, egri chiziqning ikki nuqtasini tutashtiruvchi to'g'ri chiziqda egri chiziqni aniqlash haqidav risola, Hind rashiklari haqida kitob, „ Fazo haqidagi kitobi“ , Metall va qimmat baho toshlar hajmi o'rtasidagi munosabat va shunga o'xshash ko'plab yirik asarlar muallifi desak hech ham mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa: Abu Rayhon Beruniy –bu buyuk alloma ismlarini eshitgandayoq har biro damning qalbidan ulug' bir inson o'tadi desak hech adashmagan bo'lamiz. Ularning qilgan buyuk ishlari, bilimdonligi, zukkoligi,tarbiyalari biz yoshlarni ruhlantirib turadi. Biz Beruniy izdoshlaridan ekanligimiz shu nomga, ulug' sharafiga mos bo'lmog'imiz lozim. Ularning yashab ijod qilgan yillari ayni notinchlik payitlariga to'g'ri kelganiga qaramasdan, ular izlanishdan, harakatdan, kashfiyotlardan to'xtamaganlar. Hozirgi rivojlangan mustaqil Ozbekiston farzandi sifatida aytolamanki biz ham shunday buyuk ishlar qila olamiz. Bu yo'lda bizga hech qanday to'siqlar yo'q. Rivojlanishimiz, o'z ustimizda ishlashimiz uchun kerakli barcha sharoitlar yaratilgan. Shahsan men bunday ulug' insonlarning avlodi bo'ganimdan faxirlanaman va ishonch bilan ayta olamanki men Abu Rayhon Beruniy avlodidanman. Men bu maqolani yozish davomida ko'plab ma'lumotlar va yangi bilimlarga ega bo'dim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Til va adabiyot ta'limoti ; Abu Rayhon Beruniy . Toshkent 2015.
- 2.https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu_Rayhon_Beruniy.
- 3.Aziz Qayumov; „Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino“.
- 4.Omon Matjon; „Beruniy“dramatik dostoni.
- 5.<https://saviya.uz/hayot/tarjima-hol/Abu-Rayhon-Beruniy>.